



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 20-fevral, payshanba,
21 (24.047)-son

O'zbek xalq
maqoli

Odil kishi
oyday,
oqib turgan
soyday

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining FARMOYISHI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”-gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 162-moddasiga asosan,

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi, yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi 2025-yil 21-fevral kuni chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrda Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-407-son qarori ijrosi bo'yicha viloyat hokimining o'rinbosari O.Xamrayevning hisoboti;

Samarqand viloyati mahalliy budgetining 2024-yildagi ijrosi bo'yicha viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Mirzayevning hisoboti;

Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasining 2024-yildagi faoliyati yuzasidan boshqarma boshlig'i S.Jabborovning hisoboti to'g'risida;

xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrda Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida;

Samarqand viloyati Past Darg'om tumani “Chimboyobod” MFY hududida tashkil etilgan “Pastdarg'om” maxsus sanoat zonasining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida;

Fuqarolar yig'inlari raislari sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga ko'maklashish to'g'risida;

xalq deputatlari viloyat Kengashi huzurida ekspert guruhi tashkil qilish to'g'risida;

xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati tomonidan deputat so'rovini yuborish tartibini tasdiqlash to'g'risida;

xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslarining hisobot (axborot)larini eshittirishning tartibini tasdiqlash to'g'risida;

xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish uslubiyatini tasdiqlash to'g'risida;

xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi “Hududlarni rivojlantirish hamda aholi muammolarini hal etishda mahalliy Kengashlar deputatlari va senatorlarning “mahalla yetiligi” bilan o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 35-V-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida.

Kengash raisi Sh.NEGMATOV

2025-yil 18-fevral

TURKIY DUNYO

shaharsozlari anjumani



Samarqandda Turk dunyosi muhandislari va me'morlari ittifoqining turkiy dunyo shaharsozlik qurultoyi o'z ishini boshladi.

Unda ittifoqqa a'zo davlatlar vakillari, o'zbekistonlik quruvchi va arxitektorlar, soha olim va mutaxassislari ishtirok etmoqda.

Qurultoy ochilishida O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh.Hidoyatov, viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev so'zga chiqib, ittifoq rahbariyati va mehmonlarni yurtimizga tashrifi bilan qutlab, anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi. Shuningdek, mam-lakatimizda bugungi kunda Turkiyaning bir qator yirik qurilish kompaniyalari, arxitektura byuroolari va loyihachilari faoliyat yuritib, zamonaviy standartlar asosida shaharlarimiz qiyofasini tubdan yangilashga salmoqli hissa qo'shib kelayotganini ta'kidladilar.

Turk dunyosi muhandislari va me'morlari ittifoqi raisi Ilyas Demirji, Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi, Turkiya Respublikasining sobiq Bosh vaziri Binali Yildirim, Turkiya Respublikasining Samarqanddagi bosh konsuli Salih Janer va boshqalar qariyb 25 yillik tarixga ega mazkur ittifoq bugungi kunda turkiy dunyoda tarixiylik uyg'unlashgan zamonaviy shaharsozlik an'analari joriy etish, ulkan

bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda muhim o'ringa egaligini qayd etdilar.

Bunyodkorlik, shaharsozlik orqali aslida ke-lajak quriladi, — deydi Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirim. — Unda xalqning, millatning qudrati, madaniyati, o'zligi aks etadi. Bizning turkiy xalqlarimiz Sharq G'arbda, Bolqondan Baykalga qadar muhtasham bino va inshootlar barpo etib, kuch-qudratimizni, madaniyatimizni namoyon etganlar. Uch ming yillik bu qadimiy shaharsozlik an'analari namunalari hozirgacha ham saqlanib kelmoqda va endilikda ular insoniyatning bebaho moddiy merosi hisoblanadi. Jumladan, O'zbekistonda ham bunday tarixiy obidalar, qadimiy shaharsozlikning go'zal namunalari juda ko'p va dunyo ahli ularga hayrat va havas bilan boqadi. Turk dunyosi muhandislari va me'morlari ittifoqi bugun turkiy davlatlarning, xalqlarimizning ana shu merosini asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy shaharsozlikda ulardan samarali foydalanib, ulug'vor binolar bunyod etmoqda.



Turkiya Buyuk millat majlisi deputati Ilyas Topsakal turkiy davlatlar qadimiy katta bir sivilizatsiyani tashkil etgani va bu an'analar bugun ham davom etayotganini ta'kidladi.

Ba'zi olimlar, mutaxassislar shaharsozlik an'analarda G'arbdan ilhomlanilgani haqida gapirib qolishadi, — deydi Ilyas Topsakal. — Lekin Sharqdagi



qadimiy obidalarini ko'rsangiz, Samarqand, Buxoro, Xivada bo'lsangiz, bu fikrlar xatoligini his qiliasiz. Chunki, turkiy xalqlarning shaharsozlik an'analari bir necha ming yillik tarixga ega va undan boshqalar andoza olganligi bugun hech kimga sir emas. Biz bugun ham ana shu an'alarimizni asrab-avay-lashimiz va zamonaviy arxitekturaga uyg'un tarzda davom ettirishimiz lozim.

Anjuman Samarqand — turk dunyosi sivilizatsiya markazi, turkiy dunyoda turizm va madaniy meros, Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan “tilda, fikrda va ishda birlik”, global iqlim o'zgarishlari: Orol dengizi istiqbol kabi sessiyalarda o'z ishini davom ettirdi. Unda Turk dunyosi muhandislari va me'morlari ittifoqiga a'zo davlatlar vakillari, yurtimiz olim va mutaxassislari o'z ma'ruza va taqdimotlari bilan ishtirok etdi.

Tadbirlar doirasida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev va Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirimning uchrashuvi o'tkazildi.

Qurultoy qatnashchilari uchun Samarqanddagi tarixiy-madaniy yodgorliklar, zamonaviy bino va inshootlarga sayohat ham ko'zda tutilgan.

G'.HASANOV,
A.ISROILOV (surat).

Ishsiz kambag'alni boy qilib bo'lmaydi

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturining asosiy g'oyasi ham shunday. Ya'ni, bunda kambag'allikka nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo sifatida qaralib, uning sabablari bilan kurashiladi. Qiyin moddiy ahvolga tushganlarga kredit yoki subsidiya berish ularning vaziyatini yanada og'irlashtirishini tushunib yetdik. Endi ularga fikr, g'oya, yo'nalish va eng muhimi, kasb berish orqali ko'maklashish choralari ko'rilmog'da.

Prezidentning 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ayni jarayonni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan. Unda kambag'al oilalar a'zolarini kasb-hunarga o'qitish xarajatlarini qoplab berish bo'yicha vaucher joriy qilinishi belgilangan. Bu tizim hozircha viloyatimiz hamda Toshkent shahrida sinovdan o'tkazilmog'da.

— Hujjatga muvofiq, vaucher ishsiz aholi, ustuvor ravishda kambag'al oilalar vakillariga beriladi, — deydi viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Baxtiyor Suvonqulov. — Bu imkoniyatdan foydalanish uchun kambag'al deb topilgan fuqarolar boshqarma yoki uning hududiy bo'limlariga murojaat qilishi, ish qidiruvchi sifatida e'tirof etilishi kerak. Agar uning mutaxassisligi yoki hunari bo'yicha mos ish joyi topilmasa, u talab yuqori bo'lgan kasblarga qayta o'qishga tavsiya etiladi ham-

da vaucher oladi. Mazkur vaucher fuqaroga tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan davlat va nodavlat o'quv markazlarida bepul o'qish huquqini beradi. Hozirgacha viloyatimizdan 40 ta ta'lim muassasasi ro'yxatga kiritilgan. Shundan 20 tasi xususiydir. Ularda vaucher egalari umumiy hisobda 34 ta kasb va bitta xorijiy (nemis) tilga o'qishi mumkin.

Shu paytgacha, viloyatimizda ming nafardan ortiq fuqaro vaucher olishga ulgurigan. Qator tuman va shaharlarda ta'lim jarayonlari bosqichma-bosqich boshlanmog'da. Jumladan, Ishtixon kasbiy ko'nikmalar markazi-da ayollar uchun sataroshlik guruhi shakllantirilib, unga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 15 nafar vakillari jalb qilingan.

— Shu kungacha farzandlarim tarbiyasi bilan bo'lib, biror ishning boshini tuta olmadim, — deydi Boylota mahallasida istiqomat qiluvchi Kumush Ravshanova. — Qo'lmda kasbim ham yo'q. Tuman bandlik idorasiga

ish so'rab borganimda, kasbga o'qish taklifini berishdi. O'zimga yoqadigan sataroshlikni tanladim. Sertifikat olsam, uyimda go'zallik saloni ochib, ishsiz mahalladosh ayollarni ham ishga olaman.

Guruh o'qituvchisi Zilola Mahkamovaning aytishicha, ta'lim amaliy va nazariy qismdan iborat bo'lib, 2 oy davom etadi. Uni muvaffaqiyatli yakunlagan xotin-qizlarning bandligini ta'minlashda ham ko'maklashiladi. Shu maqsadda markaz turli ish beruvchilar hamda tadbirkorlik subyektlari bilan kelishuvlarga erishmog'da.

Aytish joizki, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun vaucher asosida o'qitadigan markazlar o'lislik qilishi mumkin. Shu bois boshqarma tomonidan mahallalardagi kasb-hunarga o'qitish maskanlari faoliyati qayta ko'rib chiqilib, zarur hollarda ularni tiklash bo'yicha takliflar o'rganilmog'da.

Asqar BAROTOV.

O'ZBEKISTONDA
PENSIYA YOSHI
O'ZGARADIMI?



“ZARAFSHON”ning

YouTube

sahifasidagi videomateriallarni kuzatib boring!



2024-yilda viloyat mahalliyashtirish dasturida 64 ta korxonaning 105 ta loyihasi doirasida 2,8 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, reja 119,2 foizga bajarildi. Natijada 550 ta yangi ish o'ri yaratilib, 114,6 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Ammo ayrim hududlarda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga qo'shimcha qiymat zanjirlarini kengaytirish, import o'rini bosadigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliyashtirishni chuqurlashtirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti.



O'zimizda ishlab chiqarilishi

o'zimizdan xarid qilinishi yangi imkoniyatlar yaratadi

Misol uchun, 2025-yil mahalliyashtirish dasturida Kattaqo'rg'on shahri, Bulung'ur, Paxtachi tumanlaridan 1 tadan loyiha taqdim etilgan.

Bu kamchilikni bartaraf etish uchun "ichki bozor ehtiyojlarini o'rganish – importni tahlil qilish – resurs bazasini aniqlash – yangi loyihalarni ishlab chiqarish va amalga oshirish" tamoyilida ishlab chiqarish orqali mavjud imkoniyat va salohiyatdan foydalanish, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish zarur.

Viloyatda 215 ta noruda konlari mavjud bo'lib, 79 ta konda 2024-yil boshidan buyon o'zlashtirish boshlanmagan. Xomashyo zaxiralari asosan Nurobod, Paxtachi, Samarqand va Urgut tumanlarida joylashgan.

Bugungi kunda 48 ta uchastka auksion savdolariga joylashtirilgan. Bu konlarni tadbirkorlarga loyiha ishlab chiqib, o'zlashtirishga taklif etish zarur.

Misol uchun, Kattaqo'rg'on tumanidagi Andoq marmar konida 122 million metr kub tabiiy pardozbop toshlar zaxirasi bor. 2020-yilda geologik razvedka ishlari yakunlanib, zaxiralari hisoblangan. Mazkur konda 18 ta uchastka mavjud bo'lib, o'zlashtirish orqali yuzlab ish o'rinlari yaratish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va budjetga qo'shimcha tushumlarni yaratish mumkin.

2024-yilda respublika bo'yicha 89 million dollarlik marmar, granit kabi qurilish materiallari import qilingan. Bu yuqori ehtiyoj mavjud mazkur mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali import o'rini bosish, valyuta chiqib ketishining oldini olish mumkin, deganidir.

Paxtachi tumani gips buyumlar va mineral momiq (vata), tabiiy toshni qayta ishlashga, qurilish materiallari ishlab chiqarishga, Nurobod tumani gips va silikat materiallari, sement ishlab chiqarish, tabiiy toshni qayta ishlashga ixtisoslashgan tumanlar etib belgilangan. Lekin Paxtachi tumanida 18 ta va Nurobod tumanida 24 ta kon uchastkasi o'zlashtirilmagan.

Umuman, mahalliyashtirish haqida gap ketganda davlatimiz rahbarining investitsiya loyihalarida mahalliy kontentni ko'paytirish masalasiga alohida urg'u berganini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Negaki tahlillar bu boradagi ishlar chindan qoniqsiz ekanligini ko'rsatmoqda.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi va uning doirasida o'tkazilayotgan tadbirlar va ekologik aksiyalarda har yili yurtimizda 200 million tup ko'chat ekish belgilangan. Loyiha doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko'chati ekish maqsad qilingan. Bugun mamalakatimizning barcha hududlarida ushbu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilmoqda. Har bir hududda tuproq va iqlim sharoitiga mos, kam suv talab qiladigan ko'chatlar tanlab ekilmoqda.

Olimlar va soha mutaxassislari bilan maslahatlashgan holda, viloyatning cho'l hududlarida garmel va qurg'oqchilikka chidamli qayrag'och (g'ujum), chinor, bodom ko'chatlari, sho'rlanishga qarshi esa tut, suvsizlikka chidamli saksuvul, yasin (shumtol), yapon saforasi, tog'li hududlarga dub, igna bargli daraxtlar (archadoshlar)ning barcha turlari, lola daraxtlari ekilmoqda.

Gulzor, Bodomzor, O'rikzor, Yong'oqzor, Lolazor, Uzumzor, Chinor, Gulbog', Chorbog'... Tabiat go'zalligini namoyon yetuvchi bunday joy nomlari hozir ham yurtimizning har bir hududida, shahar, qishloq va mahallalarida uchray-

Jumladan, viloyatda 2025-2030-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan umumiy qiymati 2,7 milliard dollarlik 77 ta investitsiya loyihalarida 1,4 milliard dollarlik mahsulot import qilinishi rejalashtirilgan. Bu investitsiya sifatida kiritilayotgan mablag'larning 48,6 foizi yana xorijga chiqib ketishini anglatadi.

Misol uchun, Nurobod tumanidagi "Shtosh-khp group" korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan qiymati 8 million dollarlik toshni kesish, ishlov berish va pardozlash loyihasida mahalliy kontent ulushi 17 foizni tashkil etadi. Korxonada 1,7 million dollarga yuk tashish transportini import qilish rejalashtirilgan.

"Central Asia Company" MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan qiymati 16 million dollarlik kafel mahsulotlari xomashyosini ishlab chiqarish uchun ohaktosh va kvarsni qayta ishlash loyihasida esa mahalliy kontent ulushi 29 foizni tashkil etadi. Korxonada 1,7 million dollarga yuk tashish transportini import qilish ko'zda tutilgan. Vaholanki, viloyatimizdagi "SAMAVTO", "UZAUTO TRAILER", "UZ TRUCK AND BUS MOTORS" korxonalarida HOWO, ISUZU, KAMAZ, MAN brendlari ostida ko'plab turdagi yuk tashish transportlari mavjud.

Bulung'ur tumanidagi "Zhongya jiyu agricultural development" MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan qiymati 27 million dollarlik makkajo'xori yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish loyihasida mahalliy kontent ulushi 27 foizni tashkil etadi. Korxonada 2,5 million dollarga tomchilatib sug'orish uskunalari Xitoydan import qilish rejalashtirilgan. Biroq mazkur turdagi mahsulotlar respublikamiz, xususan, viloyatimizda ishlab chiqariladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shahar va tuman hokimlarining investitsiya bo'yicha o'rinbosarlariga 2025-2026-yil uchun rejalashtirilgan barcha investitsion loyihalari bo'yicha mahalliy kontentni joyiga borib o'rganib, ichiga kirib, uning ulushini aniqlash va ulushni oshirish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish vazifasi topshirildi.

Botir BAKTIYOROV,
viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi kotibiyati mudiri.

Aholining huquqiy savodxonligi oshyapti (mi?)

"Qo'shnim halovatimni buzyapti...", "Ishdan noqonuniy haydaldim...", "Sobiq erim aliment pulini to'lashdan bosh tortdi...": Bundan bir-ikki yil oldin sayyor qabullarda fuqarolardan bo'ladigan murojaatlarning asosiy qismi shunday mazmunga ega edi. Ayrimlar uchun shu muammolar ham hal qilib bo'lmasdek ko'rinardi. Biroq huquqiy savodxon odam bu holatda qanday yo'l tutish kerakligi, o'z huquq va manfaatlarini qanday himoya qilishni yaxshi biladi. Xo'sh, o'tgan vaqtda aholining huquqiy madaniyati oshdimi? Viloyat adliya boshqarmasiga bo'lgan murojaatlar misolida holatni tahlil qilishga urindik.

Ma'lumotga ko'ra, 2024-yilda idoraga 18622 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 9780 tasi ariza, 8841 tasi shikoyatdir. Murojaatlar mazmuni tahlil qilinsa, eng ko'pi yer qonunchiligi va uy-joy masalasi (33 foiz), keyingi o'rinlarda esa mehnat qonunchiligi (29 foiz) va ijtimoiy himoya (27 foiz) bo'yicha ekanligi ma'lum bo'ladi. Ularning 11028 tasi qanoatlantirilgan bo'lsa, 5700 taga yaqini bo'yicha huquqiy tushuncha berilgan va 1300 tasi boshqa tashkilotlarga yo'naltirilgan.

Aytish joizki, ayni kunda fuqarolarning adliya idoralariiga bir necha yo'l bilan, ortiqcha ovoragarchiliklarsiz murojaat qilishi imkoni yaratilgan. Misol uchun, Adliya vazirligining 1008 "Ishonch telefoni"ga qilingan murojaat 24 soat ichida tegishli bo'lim ish yurituviga yuborilib, nazoratga olinadi. Bundan tashqari, fuqarolar adliya idoralariiga tashrif buyurgan holda yoki "mahalla yetiligi" ko'magida "Adliya mahalla" platformasi orqali murojaat qilishi mumkin. Mahalladagi hokim yordamchisi ham o'z plansheti orqali "Onlayn mahalla" platformasi yordamida murojaatni qabul qilish imkoniyatiga ega. Barcha holatda ular hududiy adliya idoralariiga kelib tushadi va o'rganiladi.

— Prezidentning 2024-yil 24-maydagi 80-son farmoni bilan adliya idoralari zimmasiga aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish, aholiga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish singari muhim vazifalar yuklangan, — deydi viloyat adliya boshqarmasi rejalashtirish va nazorat-tahlil shu'basini boshlig'i Maksud Amirov. — Shundan kelib chiqib, joylar-



da xatlov ishlari olib borilmoqda. Unda adliya va boshqa mas'ul idora xodimlari xonadonma-xonadon yurib, har bir oila, fuqaroning huquqiy muammolari, fikr va takliflarini o'rganyapti. Joriy yil hisobidan jarayonda 30 mingta muammoli holat aniqlandi. Umumiy hisobda aholining 30 foizi xatlovdan o'tkazib bo'lindi.

Maksud Amirovning ta'kidlashicha, keyingi yillarda aholining huquqiy savodxonligi sezilarli darajada yaxshilangan. Murojaatlar aniqliq va manzilligi oshgan. Shuningdek, fuqarolar o'z huquqini himoya qilish, buzilgan huquqlarini qay tartibda tiklash bo'yicha ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan. Misol uchun, bungacha ko'pchilik qonunchilik talablarini bilmagan holda yer yoki uy-joy berilishini so'rab murojaat qilgan bo'lsa, endi shu yo'nalishdagi murojaatlarda asosan huquqiy ko'mak so'rarmoqda.

— Tumanimizda 65 ta mahalla bo'lib, har birida navbati bilan "Huquqiy mahalla" loyihasini amalga oshirish belgilangan, — deydi Pariyok tumani adliya bo'limi boshlig'i Orif Xolboyev. — Bunda adliya va boshqa mas'ul idoralar bir oy davomida ma'lum mahalla fuqarolarining huquqiy muammolari bilan ishlaydi. Misol uchun, yilning dastlabki oyida Bahor mahallasi tanlab olindi. Jarayonda aholining 1120 ta huquqiy muammosi aniqlanib, deyarli barchasi hal etildi. Bundan tashqari, uy-ma-uy o'rganishlar davomida aholiga huquqiy tushuncha berilib, 403 ta sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi. Bugungi kunda fuqarolar mas'ul idoralarga faqat huquqiy buzilganida emas, balki ma'lum masalada bilimini oshirish uchun ham murojaat qilmoqda.

Afsuski, aholining asosiy murojaatlari hali ham yer qonunchiligi va uy-joy masalasida bo'lmoqda. Bir turdagi hujjatning yo'qligi boshqa turdagi huquqiy muammoni keltirib chiqaradi. Agar ayni masala uzil-kesil hal etilsa, murojaatlar soni kamayishi, aholining esa huquqiy imkoniyatlari ortishi aniq. Bu jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

A. ORZIQULOV.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 724,2 ming taga yetdi, 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 64,6 mingta (2,4 %)ga ko'paydi.



DALA CHETI

E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI



di. Ammo o'tmishdan farqli ravishda ular faqat joy nomi sifatidagina saqlanib qolgan. Ulardagi tabiat manzarasi o'rni zamonaviy sivilizatsiya – uy-joylar, baland binolar, zamonaviy inshootlar egallagan. "Yashil makon" loyihasi ana shunday tarixiy qadriyatlarimizga qayta hayot baxsh etishga turtki bo'lmoqda. Bugungi ko'kal-mazozlashtirish jarayonlarida joylarda bir turdagi daraxt ko'chatlarini ekish orqali Kashtanzor, Chinor, O'rikzor, Bodomzor kabi namunaviy ko'chalar tashkil etilayotgani bunga misol. Ushbu tajribani barcha hududlarda joriy qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 30-dekabr-dagi "Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori "Yashil makon" umummilliy tadbirining bevosita davomi bo'ldi, deyish mumkin.

Qaror bo'yicha qishloq xo'jaligi asosiy ekin maydonlari atrofida, zovur va drenajlar hamda sug'orish kanallari bo'yidagi bo'sh qolgan yerlarga mevali va manzarali ko'chatlar ekish belgilangan. Ko'chatlardan kelgusida yuqori hosilli, eksport-bop mahsulotlar yetishtirib, xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini

qondirish va respublikamizning eksport salohiyatini oshirish vazifasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi zimmasiga yuklatilgan. Shu munosabat bilan boshqarmamiz va uning tumanlardagi bo'limlari inspektorlari tomonidan joylarda zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda boshqarma va o'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filialining barcha ilmiy xodimlari dala chetlariga ekin ekish ishlarini tashkil qilish maqsadida respublika ishchi guruhi safida ish olib bormoqda.

Viloyat bo'yicha 2025-yilda dala chetlaridagi 3623 gektar maydonga 3333 ming tup mevali daraxt ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan. Hozirgacha 40 foiz maydonda olcha, olxo'ri, uzum, jiyda va tut ko'chatlari ekildi. Bundan tashqari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi qishloq xo'jaligi ekin maydoniga kiritilgan, lekin ekin ekilmaydigan maydonlarda ekin ekib, ulardan foydalanish masalasi ham qarorda aniq belgilab berilgan. Viloyat bo'yicha joriy yilda kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi 358 gektar maydonda 330 ming dona mevali daraxt ko'chatlari ekish rejalashtirilgan.

Burxon FAYZULLAYEV,
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali direktori.
Baxtigul G'ANIYEVA,
O'simliklar karantini va himoyasi agentligi viloyat boshqarmasi matbuot xizmati rahbari.

Daromad solig'iga

imtiyoz qo'llash tartibini

bilasizmi?

Bu bo'yicha alohida davlat xizmati joriy qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-noyabrda 601-son qaroriga muvofiq, "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga imtiyoz qo'llash" bo'yicha davlat xizmatini kurashtirishning ma'muriy reglamentini tasdiqlangan.

Unga ko'ra, ariza beruvchi imtiyozni olish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilishi kerak. Bunda fuqaro so'rovnoma zarur bo'lgan hujjatlarni ilova qiladi. Undan ushbu reglamentda nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi. Soliq agenti tomonidan to'lov manbaida soliq imtiyozni qo'llanilganda, vakolatli organ ariza beruvchining daromadlari bo'yicha soliq deklaratsiyalarini mustaqil ravishda oladi.

Vakolatli organ so'rovnoma tushgan kundan boshlab besh ish kunida ariza beruvchiga daromad solig'i bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligi haqidagi QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan xabaromani Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yuboradi.

So'rovnomaning ko'rib chiqilganligi uchun to'lov undirilmaydi. Vakolatli organ o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida ariza beruvchilar haqida olingan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlashi lozim.

Shirin ZAKIRYAYEVA,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

Joriy yilning 25-27-fevral kunlari Jomboy tumanidagi "SOF EXPO Samarqand" xalqaro ko'rgazmalar majmuasida agrar sohadagi mahalliy va xorijiy ishlab chiqarish korxonalarining 4-xalqaro qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi o'tkaziladi. Ko'rgazma oldidan tashkil etilgan matbuot anjumanida tadbirning ahamiyati, uning afzalliklari, ishtirokchilar geografiyasi haqida ma'lumot berildi.

"AGRO PRO EXPO-2025":

Osiyo va Yevropaning 88 korxonasi o'z mahsulotlarini namoyish etadi

- Aholimizning 74 foizi qishloqlarda yashamoqda va qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmog'i bo'lib qolmoqda, - deydi viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalarida bo'yicha yordamchisi Nozir Ibragimov. - Qishloq xo'jaligi tarmog'i kun sayin yangilanib, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy ishlanmalar bilan boyib bormoqda. Bu kabi yangiliklardan xabardor bo'lish va sohaga joriy etishning samarali usuli ko'rgazmalar hisoblanadi. 2024-yilda o'tkazilgan ko'rgazmada 80 ta korxonalar o'z mahsulotlari bilan qatnashdi, 4500 mingdan ortiq professional va top menejer tashrif buyurib, 15 dan ortiq trening va seminar o'tkazdi. Joriy yilda esa respublikamiz tadbirkorlari bilan birga Qozog'iston, Rossiya, Xitoy, Belarus, Turkiya, Eron, Niderlandiya, Germaniya, Vengriya davlatlarining 88 ta korxonasi ko'rgazmada ishtirok etish istagini bildirdi. Ushbu korxonalar 60tasi avval ham mazkur ko'rgazmada qatnashib, manfaatdor bo'lgan va qolgan korxonalar yangi hamkorlar topish, shartnomalar imzolash va sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lish istagini bildirdi.

O'.XUDOYBERDIYEV.

Kambag'allik — ijtimoiy muammo

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan joylarda psixologlar ishtirokida "Farovon oila" treninglari o'tkazilmoqda. Tajriba tariqasida viloyatlardan bitta tumanda o'tkazilayotgan treninglarga kambag'allik reestriga kiritilgan, nogironligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolardan iborat ko'ngillilar jalb qilinmoqda.

Viloyatimizdan Qo'shrabot tumanining 15 ta mahallasi tanlab olingan bo'lib, Qo'shrabot, Shovana, Navkat, Tinchlik, Pichot hamda Ozod mahallalarida mashg'ulotlar boshlangan. Seminar-trening har hafta bir kundan, bir oy davom etishi belgilangan.

— Seminar-treningdan maqsad ijtimoiy himoyaga muxtoj aholining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxsga o'zining kuchli tomonlari, ichki resurslarini anglatgan holda jamiyatga integratsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishdir, - deydi Oqdaryo tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi shu'ba bosh mutaxassisi, seminar supravayzeri O'tkir Sha-

karov. - Jarayonda biz ishtirokchilarga na moddiy va na uslubiy yordam beramiz, ular mustaqil fikrlab, hayotidagi murakkab vaziyatdan chiqish yo'llarini qidirishga o'rgatiladi. Tajriba tariqasida o'tkazilayotgan tadbir yakunlangach, natijalar tahlil qilinadi.

Seminar-treninglarda oilalarning kambag'allikka tushib qolishiga asosiy omillardan biri sifatida ulardagi munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi ko'rsatilmog'da. Oqibatda oilada notinchlik, turli kasalliklar, iqtisodiy muammolar, tazyiq va zo'ravonlik holatlari, eng achinarlisi, ulardagi bolalarning jismoniy, ruhiy rivojlantirishiga salbiy ta'sirlar kuzatiladi.

Yaqin yillargacha respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida murabbiylik tizimi asosida faoliyat yuritib kelingan. Bunda murabbiylik tizimi professor-o'qituvchi majburiy yuklama sifatida akademik guruhlariga birlashtirilgan. O'qituvchi oldida turgan birinchi vazifa dars o'tish bo'lganligi bois murabbiylik faoliyati birlashtirilgan guruhga faqatgina tanaffus vaqtida "keldi-ketdi", "hol-ahvol so'rash" kabilar bilan cheklanardi, xolos.

Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni va boshqa me'yoriy hujjatlar yurtimizda yoshlarning zamonaviy ta'lim olishi uchun qulay sharoit yaratish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ularda qator imtiyoz va yengilliklar ko'zda tutilgan. Jumladan, 2019-yil oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimining ilk bor yo'lga qo'yilgani o'ziga xos yangilik bo'ldi.

Manbalarga ko'ra, tyutorlik faoliyati dastlab bolalarga uyida ta'lim berish jarayonida shakllangan va rivojlangan. Keyinchalik bu ommaviy ta'lim tizimiga ko'chgan. Jumladan, qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta'lim jarayoniga yordamchi sifatida tyutorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Hozirda dunyoning ko'plab mamlakatlarida tyutorlik xizmatidan foydalaniladi. Hatto ular Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Finlandiya, Koreya, Rossiya kabi mamlakatlarda maxsus o'qitiladi. Masalan, Germaniya, Koreya, Rossiya mamlakatlarida pedagog-xodimlar tayyorlash sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygohlarda bakalavr va magistratura bo'yicha maxsus tyutorlik kurslari mavjud.

Xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan har 120-150 talabaga bir

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini matematika faniga qiziqtirish va ularni mazkur fan olamiga olib kirish o'qituvchining ijodkorligi, turli misollar orqali darslarning jozibadorligini oshirish mahorat bilan belgilanadi.

Chunki maktablarda beriladigan matematik bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi. Misol uchun, matematika darslarini integrativ - tiklash, to'ldirish yondashuvlari asosida o'qitishni ta'minlash, o'quvchilarning dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador sifatida qarashi, mavjud muammolar yechimiga daxldorligini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shunda matematika mazmunan in-

Tyutor kim, uning vazifasi nima?

nafar tyutor birlashtirilgan. Hozir 3000 nafarga yaqin tyutor 400 mingga yaqin talabaniq ma'naviy va ijtimoiy holatini tahlil qilib, mavjud muammolarini bartaraf etishga ko'maklashmoqda.

Tyutor oldidagi vazifa o'quvchi yoki talabaga muayyan bilim va ko'nikmani egallashga ko'maklashishdan iborat. Darsni o'zlashtirish holatini tahlil qilish va darsdan bo'sh vaqti mazmunli o'tishini ta'minlash, ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lish tyutorning diqqat markazida bo'ladi. U o'quvchining nimalarga qiziqishini aniqlaydi, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi sabablarini tahlil qiladi, ixtisoslashtirilgan va qo'shimcha kurslarni tanlashda yordam beradi. Tyutor guruh bilan, ham individual ish olib boradi. Albatta, mutaxassis pedagogik va psixologik bilimiga, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan munosabat o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Shuningdek, tyutor ta'lim tizimi va mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari, istiqbolli kasblar va yaqin kelajakda qanday kompetensiyalar talab qilinishi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda, bugun yurtimiz oliy ta'lim tizimida joriy etilgan yangi lavozim yoshlarning malakali mutaxassis bo'lib yetishishida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi.

Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy



manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi. Yigit-qizlarning intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'riso'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslaridan foydalanishi uchun zamin yaratadi.

Akbar TURSUNOV,
Ikrom PIRMATOV,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining talabalar dekanati tyutorlari.

Hisob-kitobni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi mantiqan fikrlaydi

sonparvarlikning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Buning uchun o'qituvchidan matematika darslarining sifatini oshirish, fandi har bir masala yoki topshiriqni so'zma-so'z yodlash uchun emas, balki qiziqarli tarzda tashkil etish talab etiladi. Matematika darslarida turli noan'anaviy usullardan foydalanish bugungi kunda samarali natijalar beradi.

Masalan, o'quvchi-yoshlarga bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda, kundalik hayotimiz uchun zarur bo'lgan matematik bilimlar berilsa, maqsadga muvofiq.

Qolaversa, ko'plab ta'lim metodlaridan ham foydalanish mumkin. Jumladan, "Kichik guruhlarda ishlash" metodi bugun

ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan samarali usullardan biri. Bu uslub birinchi, o'quvchilarni mashg'ulot jarayoniga faol jalb etadi. Ikkinchidan, ularni hamkorlikda ishlashga undaydi. Masalan, 9-sinf uchun matematika darsida "Trigonometrik ayniyatlar" mavzusini o'tishda sinfdagi o'quvchilar 4 yoki 5 ta o'quvchidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruhga alohida ayniyatlar yozilgan tarqatma material (kartochkalar) tarqatiladi. Bunda o'quvchilar o'z guruhi bilan hamkorlikda ishlash, ayniyatlarni birgalikda yechishga, isbotlashga harakat qiladi. Avvalo, mavzu yuzasidan bilimlarni ham o'qituvchidan, ham guruhidagi a'lochilardan oladi. Metodning

samarasi shundaki, fanni o'zlashtirishda ortda qolayotgan o'quvchi ham mavzuni yaxshiroq tushunishga erishadi.

Matematika darslarida o'quvchilarga fikr-mulohazalarini aniq va tugal, lo'nda, mazmunli tarzda bayon etishga o'rgatish ularning misol va masalalarni bajarish malakasini oshiradi. Tabiiyki, mulohazakor o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tafakkur qilish, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etish, turli matematik modularni tuzish va tahlil qilish xususiyati ustunlik qiladi.

Madina EGAMOVA,
Ishtixon tumanidagi
31-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Badalov Sayfidin Berdikulovichga (2022-yil 9-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Rafiyeva Patiga (2017-yil 5-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Yusupov Abrorga (2002-yil 28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum

Yusupova Musallamga (2023-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Ochilov Doniyor Xaknazarovichga (2021-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Bobobekova Dilafuz Tog'oyevnaga (2021-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Rajabova Shaxlola Rustamovnaga (2018-yil 5-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidx-

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali TANLOV E'OLON QILADI!

Katta o'qituvchi lavozimiga: Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasiga.

Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarini taqdim etadilar:

Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi ko'rsatilgan pasport nusxasi, kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi, oliy ma'lumoti haqidagi diplom nusxasi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, attestatlar

on Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Rahmatov Komilga (2023-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Ibragimov Alisher Narzulloyevichga (2023-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-

nusxalarini, malaka oshirish haqidagi sertifikatni taqdim etishlari kerak.

Eslatma: Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Cho'pon ota ko'chasi, 13-"A" uy.

Telefonlar: +99866-236-21-28, +99893-357-74-95.

Electron manzil: samfilial@exat.uz

BEKOR QILINADI

Fuqaro Xaydarov Umarqul Xaydarovichga qarashli Samarqand shahri "Afrosiyob" MFY, Shohmurod ko'chasi, 1/3-uy joyning kadastr hujjatlari (kadastr raqami: 14:16:01:02:01:6715) yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Past Darg'om tumanidagi "ZOLOTAYA ROZGA" mas'uliyati cheklangan jamiyatga qarashli davlat raqami 30 166 EA bo'lgan yuklagichning texnik pasporti Past Darg'om tumani hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-287-77-72.

Mulohaza uchun mavzu



UYDAGI TARBIYA

KO'CHADA

KO'RINADI

Avtobusda ikki yigit o'zlarini ishtirokida bo'lgan voqeani baland ovozda muhokama qilmoqda: so'zlar qo'pol, avtobusda borayotganini, atrofiga boshqarilgan ham borligini deyarli unutishgan. Kimdir "ukalar, ko'pchilik oldida so'kinmanglar" desa, ulardan biri "oldingizga qarab keting, sizni haqorat qilmayapmiz-ku!" dedi.

Yana bir yo'lovchi "Eh, bularga ta'lim bergan ustozlariga rahmat" deya piching qildi.

- Uka, - dedi yonimdagi yoshi ulug' kishi. - Gapirib nima qilasiz, foydasi yo'q. Muallimini ayblamang. Oiladagi tarbiyaning natijasi bu. Xudo biladi, ota-onasi ham shunaqa toifadan bo'lsa kerak-da.

Ba'zan ko'chada mashinada allaqanday tilda qo'shiq aytayotgan radio ovozi haddan baland qo'yib ketayotganlarga ko'zimiz tushadi. "Hoy, uka, sal pastroq qiling, o'zingiz ham tushunmayapsiz-ku" desangiz, naq baloga qolasiz: yo sizni madaniyatsizlikda ayblaydi, yoki ishingini qil, mashina meniki, deb iddao qiladi.

Yana bir tanish holat: poliklinikada shifokorga navbat tuzilgan. Shu payt bir yigit qo'lida uyal telefonida gaplashayotib, eshik oldida turib oldi. "Navbat bormi, men kimdan keyin kiraman", deb so'ramadi ham. Bu holat, tabiiyki, ertalabdan beri sabr bilan turgan kishilarning g'ashiga tegdi. Ichkaridagi mijoz chiqqanda, eshikdan kiraman degan chog'i uni navbatda turgan kishi to'xtatdi va "Ota-onangdan ozroq odob o'rgansang bo'lmaydimi, bolam" deb kirib ketdi. Yo'q, yigit bu iddaodan, boshqalarning norozi e'tirozidan keyin ham navbatda turmadi, aksincha, bir xo'mrayib tashqariga chiqib ketdi. Chunki u uyda bunaqa odobni ko'rman.

Faqat bugina emas, ijtimoiy tarmoqlarda deyarli har lahzada xurmacha qiliqli yoshlar haqida lavhalar berilyapti. Ularning maktabi, o'qiyotgan oliygohi yoki ish joyi (ba'zan) aytiladi. Lekin hech kim ularning ota-onasi haqida gapirmaydi.

Kamina bu fikrni bejiz o'rtaga tashlamadim. Allomalarning qaysi kitobini o'qimang, ularda farzand tarbiyasiga ota-ona mas'ul ekani bot-bot aytiladi. Tarbiyasiz bolada

ilm olishga ishtiyoq bo'lmasligi ta'kidlanishi barobarida, farzandiga yaxshi tarbiya bermaganlar johil sifatida baholanadi. "Bolalar o'z otalaridan meros qilib oladigan uch afzal narsa bor: xushmuomalalik, odob va sadoqat" degan turk allomasi Muhammad Zehniy. Binobarin, bola tarbiyasiga oilada ko'proq ayol kishi, ya'ni ona mas'ul ekanligi ham bor gap.

Ana endi o'zingiz fikr qiling. Jamoat joylarida xurmacha qiliq qilayotgan, o'zini tuta olmayotgan yigit-qizlar oilada tarbiya ko'rganmi, ular ota-onasidan ibrat olganmi?

Biz tarbiyasiz yoki noqobil bolalar bilim olishda qiynalsa, o'qishni istamasa, buning uchun ta'lim barobarida tarbiyasizlik oqibatini ham o'qituvchidan so'rab xato qilmayapmizmi, ota-onani mas'uliyatdan chellatib qo'ymayapmizmi?

Bolaning ayniqsa jamoat joyda o'zini noo'rin tutishi, dag'al yoki qo'pol gapirishi aslo tasodifiy holat emas. Bu - oilada shakllangan tarbiya natijasi. Mabodo tartibsiz o'g'il-qizining yonini olib, muallim yoki jamoaga iddao qilsa, o'sha ota-onaning o'zida ham ibrat bo'ladigan odob yo'q. Negaki, inson o'zida bo'lmagan narsani birovga bera olmaydi. Uydagi tarbiyaning natijasi ko'chada, jamoat ichida ko'rinadi. Bu ham bor gap. Xulosa esa Sizdan, azizlarim.

Farmon TOSHEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Mustaqillikdan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, ilmiy, ta'limiy muhitda insonparvalik bosh mezonga aylandi. Ilm-fanga e'tibor tufayli ta'lim sohasi uchun imkoniyat, qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Ahamiyatlisi, bu davrda darsliklarning yangi avlodi hayotimizga kirib keldi. Darsliklardagi bosh g'oya milliy qadriyatlarimizga asosan o'quvchilarning bilimni tizimli umumlashtirishga, egallangan ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratildi. Bunga misol sifatida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishini keltirish mumkin. Jumladan, darsliklardagi ma'lumotlar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, boyitib borilganini kuzatasiz. Masalan, Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan quyidagi ma'lumotlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi: «Darhaqiqat, bobomizning mustaqillik yillarida nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamiga kirgan she'ru dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruhiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurimizni charxlaydigan, yurtimiz tarixi va uning buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradigan asarlardir». «Butun turk dunyosi Alisher Navoiyning «shams ul-millat» - millat quyoshi deb hamma davrlarda e'zoz bilan tilga oladi. Butun umrini turkiy til mavqeiini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qarror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqlidir».

Darhaqiqat, istiqloq tufayli Navoiy dahosiga ehtirom tuyg'ulari shakllantirildi. Davr talabidan kelib chiqqan holda bugungi adabiyot darsliklarida Alisher Navoiyning turli janrlarga mansub asarlaridan namunalar berilgan. Bular ichida o'rta umumta'lim maktablari darsliklarida keltirilgan ruboiy, tuyuq, qit'a, fard janrlariga mansub namunalar tarbiyaviy-axloqiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Jumladan, darsliklarda shoirning «G'aroyib ussig'ar» devonidan o'rin olgan o'ninchi va boshqa devonlaridan qit'alarining keltirilishi (mustaqil o'qish uchun berilgan qit'alar ham anchagina) fikrimizning dolidir.

*Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin natamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.*

Ushbu qit'aning sarlavhasidayoq kishi o'zini kamolga yetkazishni kasb qilib olish g'oyasi ilgari surilib, aks holda, nuqson yuzaga kelishi

Adabiyot darsliklarida NAVOIY MEROSI



izhor etiladi: «Kamol kasbiga dalolatu nuqsonidin izhori malolat».

Qit'ada g'oyat teran fikr go'zal va sirli badiiy libosga o'rab berilgan. Bolalar undagi so'z va birikmalarga alohida e'tibor berib, ularning mag'zini chaqirishga urinishi lozim. Go'zal she'riy shakl zamiridagi chuqur fikrni bolalarning o'zi kashf qilsa, g'oyat foydali bo'ladi.

«Kamol et kasbkim, ...» deb boshlanadigan qit'a o'quvchilarda u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu asardan kelib chiqadigan ma'no satriklar qatiga u qadar chuqur yashirilgan, lekin mazmuni g'oyat zalvorli. Dasturulamal yo'nalishdagi mazkur she'r o'quvchilar tomonidan nechog'lik sinchiklab o'rganilsa, ularning shaxs sifatidagi taraqqiyoti shunchalik samarali bo'lishi aniq. Inson unga Yaratgan tomonidan berilgan fe'l, odamning tarbiyaviy ta'sirlariga bo'y berishdagi o'ziga xoslik juda go'zal va oqilona tasvirlangan. Bolalar bu qit'ani sevib tahlil qiladi va o'zlariga zarur xulosa chiqaradi.

O'quvchilar tomonidan mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish lozim deb topilgan masalalarga e'tibor qaratish maqsadida darslikda savol va topshiriqlar taqdim etilgan. Ularda mutafakkir shoirning maqsadi, asar g'oyasi va badiiy xususiyatlari, asarning bugun uchun ahamiyati masalalari nazarda tutiladi.

Yana bir qit'a «Halokatdin ayog'iga kavsh bo'lmag'ang'a chun kavsh uchun ayog'i bor shukur vojbidur»:

*Ulki, iflosdin ayog'inda
Kavsh yo'li azmi chog'i yo'qtur oning,
Shukur qildik boqib birov sori -
Ki yurug'a ayog'i yo'qtur oning.*


Bu qit'a zamirida har qanday kishi o'z ahvolidan shikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin, degan oqilona o'git yashirin.

Qit'ada eng bedavo va Tangriqa xush kelmaydigan illatlardan biri shukur qilmaslik ekanligi ta'kidlanadi. Shoir qit'asida fikr komil shaxsning, odam qadrini har narsadan ustun qo'yadigan mutafakkirning nasihatlari yo'sinida tasvirlanadi. Shu bois ham, shoirning tuyg'ulari o'quvchilarga ham yuqadi, ularni o'ziga rom etadi.

Albatta, Navoiy zamonidagi bunday shukronalik da'vati bugun uchun ham birday ahamiyatli. Xalqning shukrigina mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimiz tinchligini ta'minlash, Vatanni ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

**Husan BERDIYEV,
Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti dotsenti,
Xolbo'ta XO'JANOV,
katta o'qituvchi.**

Ayting, sog'inmagan bormi bahorni?



Bolalar shoiri Olqor Damir 1947-yil 20-fevralda Ishtixon tumanida tug'ilgan. SamDuning o'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. "Salom, yaxshilik", "Sabr haykali", "Assalom, Navro'z!", "O'lmas daholar", "Afsona shahrim", "Qirq muxammas", "Qo'sh irmoq", "Quchoqlayman bahorni", "Navo" nomli she'riy, "Muattar o'ylar" tanlangan asarlari nashr etilgan. Iste'dodli shoir 2017-yilda vafot etgan. Quyida ijodkorning she'rlaridan namuna o'qiyasiz.

Qor va bahor

*Har kun ko'raverib yo'lida qorni,
Ayting, sog'inmagan bormi bahorni?*

*Ayting, sog'inmagan bormi bahorni,
Gulnafas, xushnafas o'shal ohorni.
Qo'llariga olib toru dutorni,
Kim ham sog'inmadi fasli dildorni?*

*Qo'llariga olib toru dutorni,
Kim ham kuylagisi kelmas bahorni?*

*Kim ham kuylagisi kelmas bahorni,
Har kun ko'raverib yo'lida qorni?*



Yurtim qo'shig'i

*Tog'lari go'zal yurtim,
Bog'lari asal yurtim.
Yaproqlarining madhingga
To'qiydi g'azal, yurtim.
Qirlarining qizg'aldoqzor,
Soylaringda qo'shiq bor.
Qaysi dilni kuylatmas
Sendagi go'zal bahor?!
Yomg'ir yog'ib turganda
Osmoningda turlangan
Kamalakdir, kamalak,
Ko'rib qo'ysin ko'rmagan!*

Og'aynilar

*Tol terakka qaraydi,
Terak tolga qaraydi.
Go'yoki bir-biridan
Holu ahvol so'raydi.*

*"Salom!" deyishmoqchiydi,
Muzlab qopti "tillari".
Biroq "ko'rishib turar"
Qor shoxlari - qo'llari.*

Bolarijon

*Bolarijon, bolari
Gulni ko'rsa, lol ari.
Ko'zlarini yashnatar
O'lkamizning bog'lari.*

*Bolarijon, bolari,
Sibizg'angni chal, ari.
Sevinchingga tor jahon,
Ayni bahor chog'lari.*

*Bolarijon, bolari,
Menga quloq sol, ari.
Bol yig'aver, boliston -
O'lkamiz qir-tog'lari.*

Olqor DAMIN.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.
14 194 nusxada chop etildi. Buyurtma 88. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

